



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



KARAKETOVA Dilnoza Yuldashevna

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya
va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: d.yu.karaketova@gmail.com

JINOYAT SUBYEKTI FAKULTATIV BELGILARI KLASSIFIKATSIYASI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): KARAKETOVA D.Y. Jinoyat subyekti fakultativ belgilari klassifikatsiyasi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 69-75.

 5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqolada jinoyat subyekting fakultativ belgilari va ularning turli asoslarga ko'ra klassifikatsiyasi qilinishi tahlil etilgan. Maxsus subyekt va fakultativ belgilar o'rtasidagi farqlar, ularning jinoyat huquqi nazariyasi hamda sud amaliyotidagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot jarayonida mamlakatimiz sudlari tomonidan 2023–2025 yillarda ko'rib chiqilgan 500 dan ortiq sud hukmlarini o'rganish asosida jinoyat subyekting yoshi, jinsi, sog'lig'ining holati, jabrlanuvchi bilan munosabati, kasbi va lavozimi, fuqaroligi hamda ilgari sudlanganligi kabi fakultativ belgilarning qonunchilik va jazo tayinlashdagi o'rni muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyat subyekting fakultativ belgilari jinoyatchining shaxsini to'liq ifoda etib, sud tomonidan jazoni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holat sifatida, shuningdek javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishda e'tiborga olinadi.

Kalit so'zlar: jinoyat subyekti, fakultativ belgilar, maxsus subyekt, klassifikatsiya, jinoyat qonuni, sud amaliyoti, javobgarlik, yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar.

KARAKETOVA Дилноза Юлдашевна

Доцент кафедры уголовного права, криминологии
и противодействия коррупции ТГЮУ,
доктор философии юридических наук (PhD)
E-mail: d.yu.karaketova@gmail.com

КЛАССИФИКАЦИЯ ФАКУЛЬТАТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются факультативные признаки субъекта преступления и их классификация по различным основаниям. Рассматриваются различия между специальным субъектом и факультативными признаками, их значение в теории уголовного права и судебной практике. В процессе исследования на основе изучения более 500 судебных приговоров, рассмотренных судами нашей страны в 2023–2025 годах, обсуждается роль таких факультативных признаков субъекта преступления, как возраст, пол, состояние здоровья, отношение к потерпевшему, профессия и должность, гражданство, а также наличие судимости, в законодательстве и при назначении наказания. Результаты исследования показывают, что факультативные признаки субъекта преступления всесторонне характеризуют личность преступника и учитываются судом в качестве обстоятельств, отягчающих или смягчающих наказание, а также при решении вопроса об освобождении от ответственности или наказания.

Ключевые слова: субъект преступления, факультативные признаки, специальный субъект, классификация, уголовный закон, судебная практика, ответственность, смягчающие или отягчающие обстоятельства.

DILNOZA Karaketova Yuldashevna

Associate Professor at the Department of
Criminal Law, Criminology and
Anti-Corruption, TSUL, PhD in Law
E-mail: d.yu.karaketova@gmail.com

CLASSIFICATION OF FACULTATIVE CHARACTERISTICS OF THE SUBJECT OF THE CRIME

ANNOTATION

The article analyzes the optional (facultative) characteristics of the subject of a crime and their classification according to various criteria. It examines the differences between a special subject and optional characteristics, as well as their significance in the theory of criminal law and judicial practice. Based on the study of more than 500 court judgments reviewed by the courts of our country in 2023–2025, the research discusses the role of such optional characteristics of the subject of a crime as age, gender, state of health, relationship with the victim, profession and position, citizenship, and prior convictions in legislation and sentencing. The results of the study show that the facultative characteristics of the subject of a crime comprehensively reflect the offender's personality and are taken into account by the court as circumstances aggravating or mitigating punishment, as well as when deciding on exemption from liability or punishment.

Keywords: subject of a crime, optional characteristics, special subject, classification, criminal law, judicial practice, liability, mitigating or aggravating circumstances.

Jinoyat subyekti fakultativ belgilari ham bir qancha jihatlariga bog'liq ravishda turlarga bo'linadi.

Jismoniy shaxs ekanlik, belgilangan yoshga yetganlik va aqli rasolik jinoyat subyekti zaruriy belgilari hisoblanadi. Jinoyatning maxsus subyekti esa umumiy subyekti belgilari bilan bir qatorda maxsus, qo'shimcha belgilarga ega bo'lgan shaxs tushuniladi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aksariyat moddalarida maxsus subyekt belgilari juda ko'p uchraydi.

Jinoyat subyekti fakultativ belgilarini tahlil qilishda avvalo, maxsus subyekt belgilarini tadqiq qilish talab etiladi. Chunki, mohiyatan olganda maxsus subyekt va subyektning fakultativ belgilari bir xil tushunchalar, faqat ular jinoyat qonuni maxsus qismi normalarida kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida ko'rsatilganligi yoki ko'rsatilmaganligi bilan farqlanadi.

Maxsus subyektning maxsus belgilari jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu belgilarga ega bo'lgan shaxslar yuqori darajadagi javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Maxsus subyektning qonun normalarida belgilanishi jinoyatning aniq turlari, ularning jamiyat uchun xavflilik darajasi xususiyatlarini aks ettiradi. Faqat maxsus subyektlargina qonun tomonidan nazarda tutilgan zararni yetkazishi, jinoyat qonuni bilan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga tahdid solishi mumkin. Bir qancha jinoyat tarkiblarida maxsus sifatlarga (belgilarga) ega bo'lmagan boshqa shaxslar muayyan jinoyat subyekti bo'la olmaydi. Masalan, pora olish jinoyatining subyekti mansabdor shaxslar, mehnat qilish huquqini buzishda subyekt faqat ish beruvchi bo'ladi.

Maxsus subyektlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Q.Abdurasulova fikricha, "maxsus subyektlar o'zlariga berilgan tavsif bilan bog'liq bir va bir nechta belgilarga ega bo'lishlari mumkin.

Chunonchi, aksariyat maxsus subyektlar, masalan, ona (O'zbekiston Respublikasi JK 99-moddasi), savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs (JK 188-moddasi), harbiy xizmatchi (JK 295,302-moddalari) va boshqalar faqat bitta belgiga egadir. O'zbekiston Respublikasi JKning mazkur moddalariga muvofiq shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun, jinoyat tarkibining boshqa belgilari bilan bir qatorda, subyektning maxsus subyektligini ko'rsatuvchi belgini aniqlash yetarlidir.

Shu bilan birga, qonunda bir nechta belgilarga ega bo'lgan maxsus subyektli jinoyat tarkiblari ham mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi JKning 206-moddasi 2-qismiga muvofiq, mas'ul lavozimni egallagan (birinchi alomat) mansabdor shaxs (ikkinchi alomat) mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyatning subyekt bo'lishi mumkin; O'zbekiston Respublikasi JKning 257-moddasiga muvofiq, muayyan uchastkada mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yoki mazkur qoidalarining bajarilishini nazorat qilish majburiyati yuklangan (birinchi alomat) mansabdor shaxs (ikkinchi alomat) mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyatning subyekt bo'lishi mumkin va h.k. O'zbekiston Respublikasi JKning ushbu moddalariga muvofiq aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish uchun maxsus subyektning bir nechta belgilarining mavjud bo'lishi talab etiladi. Agar mazkur belgilarning bittasi bo'lmasa ham, qilmishni JKning tegishli moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi"[1].

Q.Abdurasulova shuningdek, maxsus subyektli belgilarini jinoyat kodeksi normalarida bayon etilishiga qarab ham bir nechta turlarga bo'linishini ko'rsatib o'tgan. Bunda, birinchi holatda maxsus subyekt tavsiflovchi belgilar jinoyat tarkibining asosiy belgisi sifatida ko'rsatiladi, ikkinchi holatda maxsus subyekt tavsiflovchi belgilar jinoyat tarkibining asosiy belgisi emas, balki kvalifikatsiya qiluvchi belgisi sifatida ko'rsatiladi, uchinchi holatda maxsus subyekt tavsiflovchi belgilar asosiy va jazoni og'irlashtiruvchi tarkiblarga kiritiladi.

Yu.V.Tarasova fikriga ko'ra, "amaldagi jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyat subyektlarining maxsus alomatlari turli asoslarga ko'ra tasniflandi. Bular quyidagilardan iborat bo'lib, ularni jismoniy xususiyatlariga; maxsus subyektning qarindoshlik munosabatlariga ko'ra; shaxsning mansab mavqei, kasbi, faoliyat turi va bajarayotgan ishining xususiyatiga ko'ra; maxsus subyekt zimmasiga yuklatilgan muayyan majburiyatlarning mavjudligiga ko'ra; fuqaroligiga ko'ra; shaxsning sud jarayonida ishtirok etishiga ko'ra; harbiy xizmatga aloqadorligiga ko'ra turlarga bo'lish mumkin"[2].

E.A. Bachurin maxsus subyektlarni tajovuz obyekti bilan belgilanadigan subyektlar; belgilari jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadigan subyektlar; aybdorning jabrlanuvchi bilan munosabatlariga nisbatan belgilarga ajratishni taklif qilgan [3].

Shuningdek, maxsus subyektlarni shaxsning huquqiy holatiga ko'ra, aybdorning shaxsiga ko'ra hamda aybdor shaxsning jinoiy qilmishlari xususiyatiga ko'ra tasniflash ham mavjud [4].

Ayrim olimlar maxsus subyektlarni quyidagicha tasniflashni taklif qilishgan:

1) subyektning huquqiy holati va ijtimoiy rolga bog'liq belgilar. Bunga fuqarolik, mansabdor shaxs, kasb faoliyati, harbiy xizmatga aloqadorligi, jinoyat protsessidagi maqomi, qamoqqa olingan yoki sudlanganligi, jinoyat sodir etishdagi roli (tashkilotchi, bajaruvchi, dalolatchi, yordamchi) kabi xususiyatlar kiritiladi[5];

2) subyektning jismoniy xususiyatlari. Bunga yoshi (voyaga yetmagan, katta yoshdagi), jinsi, sog'lig'i holati va mehnatga layoqatliliigi kabi xususiyatlar kiritiladi [6];

3) subyektning jabrlanuvchi bilan munosabatiga oid xususiyatlari. Bunga subyektning jabrlanuvchi bilan qarindoshligi, xizmat munosabatlari (rahbarligi), boshqa munosabatlari (moddiy qaramligi, vasiyligi) kabi xususiyatlar kiritiladi [7].

Adabiyotlarda maxsus subyektlarni asosan uchta guruhga bo'lish ko'p uchraydi. Bunda birinchi guruhga kasb yoki lavozimga bog'liq belgilar [8], ikkinchi guruhga jins va yoshga, subyektning sog'lig'iga bog'liq belgilar [9], uchinchi guruhga subyektning jabrlanuvchi bilan munosabatlariga oid belgilar kiritiladi [10].

Biz yuqorida ko'rsatib o'tilgan mualliflarning qarashlarini inkor qilmaymiz, chunki jinoyat huquqida maxsus subyektlarning klassifikatsiyasini turlicha yondashgan holda talqin qilish mumkin. Shu bilan birgalikda, tegishli adabiyotlarda maxsus subyektni aybdorning kasbi va lavozimiga, jinsiga, yoshi va sog'lig'iga, jabrlanuvchi bilan aloqasiga bog'liq asosiy uchta guruhga bo'lish tarafdorimiz.

Mamlakatimiz jinoyat qonuni maxsus qismi moddalarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch guruh asosida tahlil qilishga harakat qildik.

Birinchi guruhga, odatda kasb yoki lavozimga bog'liq belgilar kiritiladi. Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarida ushbu turdagi belgilar ko'p uchraydi. Jumladan, bir qancha moddalarda mansab yoki xizmat mavqeidan foydalanib jinoyat sodir etganlik (JK 125-moddasi ikkinchi qismi "a" bandi; JK 133-moddasi ikkinchi qismi "g" bandi; 135-moddasi ikkinchi qismi "ye" bandi; 141²-modda ikkinchi qismi "g" bandi; 168-moddasi uchinchi qismi "v" bandi; 186¹-modda beshinchi qismi; 186²-modda ikkinchi qismi "g" bandi; 186³-modda ikkinchi qismi "g" bandi; 202-moddasi uchinchi qismi "b" bandi; 210-moddasi birinchi qismi; 211-moddasi birinchi qismi; 213-moddasi birinchi qismi; 214-moddasi birinchi qismi; 229⁶-modda ikkinchi qismi "g" bandi, 244¹-modda uchinchi qismi "b" bandi; 244⁴-modda ikkinchi qismi "b" bandi; 250¹-modda ikkinchi qismi "g" bandi; 252-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi; 271-moddasi ikkinchi qismi "d" bandi; 278²-modda ikkinchi qismi "v" bandi; 278³-modda ikkinchi qismi "v" bandi; 278⁷-modda ikkinchi qismi "v" bandi; 278⁸-modda uchinchi qismi "b" bandi; 278⁹-modda to'rtinchi qismi "a" bandi; 301-moddasi birinchi qismi);

mansabdor shaxs ekanlik (JK 144-moddasi ikkinchi qismi; 146-moddasi birinchi qismi; 155³-modda ikkinchi qismi "b" bandi; 156-moddasi uchinchi qismi "g" bandi; 169-moddasi ikkinchi qismi "ye" bandi; 175-moddasi birinchi qismi; 181¹-modda birinchi qismi; 192¹-modda birinchi qismi; 192⁴-modda birinchi qismi; 192⁷-modda; 192⁹-modda ikkinchi qismi; 192¹¹-modda; 193-moddasi; 194-moddasi; 195-moddasi; 205-moddasi; 206-moddasi; 207-moddasi; 208-moddasi; 209-moddasi; 210-211-moddalar; 223-moddasi ikkinchi qismi "g" bandi; 227¹-modda ikkinchi qismi; 232-moddasi ikkinchi qismi; 232¹-modda ikkinchi qismi; 234-moddasi; 236-moddasi ikkinchi qismi; 241¹-modda; 259¹-modda; 301-moddasi; 302-moddasi);

kasb yoki ma'lum bir vazifa yuklatilgan shaxs (113-moddasi beshinchi qismi; 114-moddasi birinchi qismi; 116-moddasi; 117-moddasi; 118-moddasi uchinchi qismi "v" bandi; 119-moddasi uchinchi qismi "v" bandi; 125-moddasi ikkinchi qismi "a" bandi; 128-moddasi uchinchi qismi "v" bandi; 129-moddasi ikkinchi qismi "j" bandi; 162-moddasi; 163-moddasi; 172-moddasi; 178-moddasi, 182-moddasi ikkinchi qismi "g" bandi; 186¹-modda ikkinchi qismi "g" bandi; 197¹-modda; 214¹-modda; 216²-modda; 228²-modda; 230-moddasi; 230²-modda; 231-moddasi; 232-moddasi; 233-moddasi; 234-moddasi; 235-moddasi; 241¹-modda; 256-moddasi ikkinchi qismi "a" bandi; 257-moddasi; 259-moddasi; 260-moddasi; 261-moddasi; 262-moddasi; 262¹-modda; 279-284-moddalar; 287-289-moddalar; 291-300-moddalar).

Ikkinchi guruhga jins, yosh, kasallik, kuchli ruhiy hayajonlanish, jinoiy jazoni o'tash joylaridagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kiritish mumkin.

Jins bilan bog'liq belgilarga Jinoyat kodeksining 99-moddasi (Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi), 120-moddasi (Besoqolbozlik), 126-moddasi (Ko'p xotinli bo'lish) jinoyatlari;

yosh bilan bog'liq belgilarga 122-moddasi, 122¹-modda, 123-moddasi, 125¹-modda, 126¹-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari, 127-moddasi, 127¹-modda, 128¹-modda, 144-moddasi, 146-moddasi, 148¹-modda, 175-moddasi, 178-moddasi jinoyatlari;

kasallik bilan bog'liq belgilarga 113-moddaning birinchi-to'rtinchi qismlari (Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish) jinoyati;

kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) bilan bog'liq belgilar 98-moddasi (Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish), 106-moddasi (Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish) jinoyatlari;

jinoiy jazoni o'tash joylaridagi shaxslar tomonidan sodir etilganlik belgilariga 220-modda, 221-modda, 222-modda jinoyatlari kiradi.

Uchinchi guruhga aybdorning jabrlanuvchi bilan munosabatiga oid belgilar kiradi. Bunday belgilarga 103-moddaning ikkinchi qismi "a" bandi, 115¹-modda ikkinchi qismi, 117-modda, 118-modda uchinchi qismi "b" va "v" bndlari, 119-modda uchinchi qismi "b" va "v" bndlari, 121-modda, 126¹-modda, 128-modda uchinchi qismi "b" va "v" bndlari, 129-modda ikkinchi qismi "ye" va "j" bandi, 135-modda ikkinchi qismi "g" bandida nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Albatta, yuqorida ko'rsatib o'tilgan ro'yxat to'liq bo'lmashligi mumkin, chunki bir qancha jinoyatlar albatta maxsus subyekt belgisi bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birgalikda, muayyan jinoyat tarkibida bir vaqtning o'zida bir nechta belgilar mavjud bo'lishi ham mumkin. Masalan, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash yoshga oid belgi va jabrlanuvchi bilan munosabatga oid belgilarni bir vaqtning o'zida aks ettiradi.

Biz yuqoridagi paragraflarda maxsus subyekt va jinoyat subyektini fakultativ belgilari o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni ko'rib chiqqan edik. Maxsus subyekt belgilari Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalarida aniq ko'rsatilgan bo'lsa, fakultativ belgilar Jinoyat kodeksi umumiy qismi normalari qoidalaridan hamda Maxsus qismi normalari mazmunidan kelib chiqadi.

Maxsus subyekt belgilari bo'yicha turlicha qarashlar mavjud bo'lsa, jinoyat subyektini fakultativ belgilari bo'yicha ham turlicha yondashuvlar mavjud bo'ladi.

Jinoyat subyektini fakultativ belgisi jinoyat obyekti, ya'ni jinoyat sodir etilganda buziladigan ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Har qanday ijtimoiy aloqa faqat ichki tomondan zarar ko'radi, shuning uchun aybdor shaxs tegishli o'zaro munosabatning ishtirokchisi bo'lishi kerak.

Subyektning fakultativ belgilari jinoyatchining shaxsiga oid turli xil xususiyatlarga taalluqli bo'lishi mumkin: xizmat yoki ish joyidagi mavqei, lavozimi, kasbi, jinoyat sodir etilishi bilan bog'liq salbiy xususiyatlari, harbiy majburiyatlari va hokazo [11].

Jinoyat subyektining fakultativ belgilari ixtiyoriy (konstruktiv ahamiyatga ega bo'lmagan) xususiyatga ega bo'lib, sud ularni jinoyatchining shaxsiyatini tavsiflovchi holat sifatida jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olishi mumkin.

Adabiyotlarda jinoyat subyektini fakultativ belgilari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligi uchun biz jinoyat maxsus subyektini klassifikatsiyasidan kelib chiqqan holda, subyekt fakultativ belgilarini klassifikatsiya qilishga harakat qildik.

Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda sodir etilayotgan jinoyatlar soni ko'payib bormoqda. Jumladan, 2020-yilda 30282 ta jinoyat ishi sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 47 657 tani, 2022-yilda 58 697 tani, 2023-yilda 58 418 tani, 2024-yilda 61 481 tani tashkil etgan [12].

Tadqiqot davomida Internet tarmog'ida e'lon qilingan sud qarorlari (<https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>) bazasidan 2023-2025 yillarda ko'rib chiqilgan 500 dan ortiq sud hukmlari tahlil qilindi.

Bunda hukmlarda maxsus subyekt belgilari mavjudligi va ularning sud tomonidan qaror qabul qilishda (jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanganligi, javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishdagi) ahamiyati o'rganildi.

Biz sud hukmlarini tahlil qilishda aynan Jinoyat kodeksi Maxsus qism normalarida jinoyat tarkibi yoki kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutilmagan, jinoyat subyektini tavsiflovchi holatlar va ularga sudlarning bergan bahosiga qarab, jinoyat subyektini fakultativ belgilariga oid tahlillarni amalga oshirdik.

O'rganilgan sud hukmlari tahlili asosida biz jinoyat subyektini fakultativ belgilarini quyidagi turlarga bo'lishni taklif qildik:

yosh, jins va sogʻliq bilan bogʻliq fakultativ belgilar;
 subyektning jabrlanuvchi bilan munosabatlariga bogʻliq fakultativ belgilar;
 kasb va lavozim bilan bogʻliq fakultativ belgilar;
 subyektning fuqaroligi bilan bogʻliq fakultativ belgilar;
 ilgari jinoyat sodir etganligi bilan bogʻliq fakultativ belgilar.

Demak, oʻrganilgan ishlar soni 500 tani tashkil qildi. Bunda yosh, jins va sogʻliq bilan bogʻliq fakultativ belgilar 39%ni, subyektning jabrlanuvchi bilan munosabatlariga oid fakultativ belgilar 6%ni, kasb va lavozim bilan bogʻliq fakultativ belgilar 3,6%ni, subyektning fuqaroligi bilan bogʻliq fakultativ belgilar 7,3%ni, ilgari jinoyat sodir etganligi bilan bogʻliq fakultativ belgilar 41,7%ni, mastlik holati bilan bogʻliq fakultativ belgilar 2,4%ni tashkil qildi.

Yosh, jins va sogʻliq bilan bogʻliq fakultativ belgilar taqsimoti quyidagicha:

katta yoshdali, pensiya yoshida ekanligiga oid holatlar 18,7%ni;

kasalligi, nogironligiga oid holatlar 37,5%ni;

ayol tomonidan sodir etilganligiga oid holatlar 40,6%ni;

voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilganligi 3,2%ni tashkil qildi.

Koʻrsatib oʻtilgan holatlarning barchasini sud jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholagan.

Subyektning jabrlanuvchi bilan munosabatlariga oid fakultativ belgilar taqsimoti quyidagicha:

rasmiy nikohdagi ayolga nisbatan 66,6% ni;

sharʼiy nikohdagi ayolga nisbatan 16,6% ni;

eriga nisbatan 16,6% ni tashkil qildi.

Kasb va lavozim bilan bogʻliq fakultativ belgilar asosan tadbirkorlik faoliyati subyektlari ekanligi bilan bogʻliq holatlar aniqlandi.

Subyektning fuqaroligi bilan bogʻliq fakultativ belgilarda odatda chet el fuqarolari ekanligini jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanganligi aniqlandi.

Ilgari jinoyat sodir etganligi bilan bogʻliq fakultativ belgilar taqsimoti quyidagicha:

takroran jinoyat sodir etilganligi 9 %ni;

sudlangan shaxs tomonidan yana jinoyat sodir etilganligi 20,5 % ni;

ilgari sudlamaganlik holati 70,5%ni tashkil qildi. Bunda takroranlik va sudlanganlik jazoni ogʻirlashtiruvchi holat sifatida baholangan boʻlsa, ilgari sudlanmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir qilinishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholangan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti. Oʻquv-qoʻllanma. -T.: TDYUI nashriyoti, 2005. B. 36-37. (Abdurasulova Q.R. The Special Subject of a Crime. Study Guide. – Tashkent: Tashkent State Law Institute Publishing, 2005. pp. 36–37.).

2. Тарасова Ю.В. Специальный субъект преступления и его значение в уголовном праве. Автореф. дис. канд. юрид.наук. М. 2006. С.5. (Tarasova Yu.V. The Special Subject of a Crime and Its Significance in Criminal Law. Abstract of the Candidate of Legal Sciences Dissertation. Moscow, 2006. p. 5.)

3. Бачурин Э.А. Специальный субъект преступления. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. Красноярск 2005. С. 17. (Bachurin E.A. The Special Subject of a Crime. Abstract of the Candidate of Legal Sciences Dissertation. Krasnoyarsk, 2005. p. 17.)

4. Ораздурдыев А. М. Классификация единичных составов преступлений в зависимости от количества элементов и признаков состава в законе // Вестник ВУиТ. 2018. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-edinichnyh-sostavov-prestupleniy-v-zavisimosti-ot-kolichestva-elementov-i-priznakov-sostava-v-zakone> (дата обращения: 09.04.2025). (Orazdurdyev A. M. Classification of Single Crime Compositions Depending on the Number of Elements and Features of the Composition in the Law. // Bulletin of the Volga University of V. N. Tatishchev. 2018. No. 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-edinichnyh-sostavov-prestupleniy-v-zavisimosti-ot-kolichestva-elementov-i-priznakov-sostava-v-zakone> (accessed: April 9, 2025).)

5. Назаренко Г. В. Уголовно-релевантное психическое состояние субъекта преступления и лиц, совершивших общественно опасные деяния: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. М., 2001. С. 10. (Nazarenko G.V. The Criminally

Relevant Mental State of the Subject of the Crime and of Persons Who Have Committed Socially Dangerous Acts. Abstract of the Doctor of Legal Sciences Dissertation. Moscow, 2001. p. 10.)

6. Павлов В. Г. Квалификация преступлений со специальным субъектом. СПб., 2011. С. 105.; Иванов Н. Г. Аномальный субъект преступления: проблемы уголовной ответственности: учеб. пособие для вузов. М., 1998. С. 203, 204. (Pavlov V.G. Qualification of Crimes with a Special Subject. St. Petersburg, 2011. p. 105; Ivanov N.G. Abnormal Subject of a Crime: Problems of Criminal Liability. Textbook for Universities. Moscow, 1998. pp. 203–204.)

7. Иванчин А.В. Альтернативные, интегрированные и иные сложные составы преступлений (проблемы трактовки) // Актуальные проблемы уголовного права на современном этапе (вопросы дифференциации ответственности и законодательной техники). 2018. № 7 (7). С. 29–38. (Ivanchin A.V. Alternative, Integrated, and Other Complex Crime Compositions (Interpretation Issues). // Current Problems of Criminal Law at the Present Stage (Issues of Differentiation of Responsibility and Legislative Technique). 2018. No. 7 (7). pp. 29–38.)

8. Козаченко И.Я. Уголовное право: Учеб. пособие / И.Я. Козаченко, З.А. Незнамова. М.: Норма, 1999. С. 248–25; Сорочкин Роман Александрович Некоторые проблемы законодательного определения должностного лица // Пробелы в российском законодательстве. 2015. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-problemy-zakonodatel'nogo-opredeleniya-dolzhnostnogo-litsa> (дата обращения: 01.04.2025).; Мурадов Э. Руководитель организации как специальный субъект преступлений в сфере экономической деятельности // Уголовное право. 2009. № 2. С. 46–51; Егорова Н. Управленческие функции специального субъекта преступления (уголовный закон, теория, судебная практика) // Уголовное право, 2007. № 2. С. 45–50. (ozachenko I.Ya., Neznamova Z.A. Criminal Law: Study Guide. Moscow: Norma, 1999. pp. 248–251; Sorochkin Roman Aleksandrovich. Some Problems of the Legislative Definition of an Official Person. // Gaps in Russian Legislation. 2015. No. 6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-problemy-zakonodatel'nogo-opredeleniya-dolzhnostnogo-litsa> (accessed: April 1, 2025); Muradov E. The Head of an Organization as a Special Subject of Crimes in the Field of Economic Activity. // Criminal Law. 2009. No. 2. pp. 46–51; Egorova N. Managerial Functions of the Special Subject of a Crime (Criminal Law, Theory, Judicial Practice). // Criminal Law. 2007. No. 2. pp. 45–50.)

9. Ермакова Л. Д. Специальный субъект преступления // Уголовное право Российской Федерации. Общая часть / под ред. Б. В. Здравомыслова и др. М., 1994. С. 217. (Ermakova L.D. The Special Subject of a Crime. // Criminal Law of the Russian Federation. General Part / edited by B.V. Zdravomyslov et al. Moscow, 1994. p. 217.)

10. Плотников А.И. Теоретические основы квалификации преступлений (учебное пособие). Оренбург: МГЮА, 2001. С. 27.; Кадников Н.Г. Категории преступлений и проблемы уголовной ответственности. Учебное пособие. М.: Книжный мир, 2005. С. 28.; Иванчин А.В. Альтернативные, интегрированные и иные сложные составы преступлений (проблемы трактовки) // Актуальные проблемы уголовного права на современном этапе (вопросы дифференциации ответственности и законодательной техники). 2018. Вып. 7. С. 35. (Plotnikov A.I. Theoretical Foundations of the Qualification of Crimes (Study Guide). Orenburg: Moscow State Law Academy, 2001. p. 27; Kadnikov N.G. Categories of Crimes and Problems of Criminal Liability. Study Guide. Moscow: Knizhny Mir, 2005. p. 28; Ivanchin A.V. Alternative, Integrated, and Other Complex Crime Compositions (Interpretation Issues). // Current Problems of Criminal Law at the Present Stage (Issues of Differentiation of Responsibility and Legislative Technique). 2018. Issue 7. p. 35.)

11. Тарасова Ю.В. Специальный субъект преступления как элемент основных составов преступлений // Российский следователь. - 2007. - № 5. - С. 24. (Tarasova Yu.V. The Special Subject of a Crime as an Element of Basic Crime Compositions. // Russian Investigator. 2007. No. 5. p. 24.)

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy ma'lumotlari // URL: <https://stat.sud.uz/criminal> (Official data of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan // URL: <https://stat.sud.uz/criminal>)

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416